



№1(5)  
2025

ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ  
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

# MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMIY-METODIKALÍQ JURNAL

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ  
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR  
MINISTRIGI**

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT  
MINISTRIGI**

**ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ  
NÓKIS FILIALÍ**

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ**  
*Ilmiy-metodikalıq jurnal*

**MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI**  
*Ilmiy-uslubiy jurnal*

**ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА**  
*Научно-методический журнал*

**BULLETIN OF MUSIC AND ART**  
*Scientific-methodical journal*

**№ 1(5)/2025**

# SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

## *Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali*

**Bas redaktor:** – Allanbaev Rudakiy, professor

**Juwaplı xatker:** – Kamalova Dilfuza, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktori, docent.

### REDKOLLEGIYA AĞZALARÍ:

**OZODEBK NAZARBEKOV** – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

**AZIZBEK TURDIEV** – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri máslahátshisi, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD);

**BEGIS TEMIRBAEV** – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

**KAMOLIDDIN URINBAYEV** – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

**OMONILLA RIZAEV** – kórkem ónertaniw ilimleriniń kandidati, professor;

**HIKMAT RAJABOV** – professor;

**ORAZALI TOSHMATOV** – professor;

**BAXT AZIMOV** – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

**MUHABBAT TOLAXOJAева** – kórkem ónertaniw ilimleriniń doktorı, professor;

**MARFUA XAMIDOVA** - kórkem ónertaniw ilimleriniń doktorı, professor;

**BOLTABOY SHODIYEV** - kórkem ónertaniw ilimleriniń doktorı;

**OZODA TOSHMATOVA** - kórkem ónertaniw ilimleriniń doktorı, professor;

**SAYYORA ĞAFUROVA** – professor;

**OYDIN ABDULLAEVA** – professor;

**IRODA MIRTALIPOVA** –kórkem ónertaniw ilimleri boyinsha filosofiya doktorı (PhD);

**PARAXAT MAMUTOV** – kórkem ónertaniw ilimleri boyinsha filosofiya doktorı (PhD);

**QURBANBAY JARIMBETOV** – filologiya ilimleriniń doktorı, professor;

**ALIMA BERDIMURATOVA** – filosofiya ilimleriniń doktorı, professor;

**ZIYADA BEKBERGENOVA** – filologiya ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

**ALIMA PIRNIYAZOVA** –filologiya ilimleriniń doktorı (DSc);

**YUSUPOV QONÍSBAY** – pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

**UTEBAEV TAJIBAY** - pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

**SEYTKASIMOV DAULETNAZAR** - pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc);

**ARTÍQBAY EREJEPOV** – pedagogika ilimleri boyinsha filosofiya doktorı (PhD), docent;

**JAÑABAY MARZIYAEV** – filologiya ilimleri boyinsha filosofiya doktorı (PhD), docent;

*Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarılıadi. Jurnal Ózbekstan Respublikasi Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciyalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.*

**Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanhı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertaniw ilimleri jónelisi boyinsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵariw ushın arnalǵan jetekshi ilimiý jurnallar qatarına kiritilgen.**

*Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Turan oypati 29-jay.*

*E-mail:[ozdknf@edu.uz](mailto:ozdknf@edu.uz), UZDK\_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>*

ISSN-2181-4112

## **CHOLG‘U IJROCHISINI KONSERT VA SAHNA NAMOYISHIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

**Dosimbetov B.X.**

*O‘zbekiston davlat konservatoriysi*

**Annotatsiya:** Cholg‘u ijrochiligi faoliyati psixologiyasi odatda ikki jihatdan ko‘rib chiqiladi: musiqa asari ustida ishlash, jamoat ijrosiga tayyorgarlik va sahnadagi ijodiy jarayon sifatida. Bo‘lajak sahna asarining tabiatini, xalq cholg‘u janrining xususiyatlari avvaldanoq tegishli psixologik munosabatni yaratadi, har qanday darajadagi ijrochini u yoki bu yo‘nalishga yo‘naltiradi. Ushbu maqola konsert va sahna tomoshasiga tayyorgarlik jarayonini psixologik tahlil qilishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** cholg‘u ijrochiligi, ijrochi psixologiyasi, sahna asari, konsert.

**Аннотация:** Психология инструментальной исполнительской деятельности обычно рассматривается в двух аспектах: как работа над музыкальным произведением, как подготовка к публичному выступлению и как творческий процесс на сцене. Характер будущего сценического произведения, особенности народно-инструментального жанра с самого начала создают соответствующий психологический настрой, направляют исполнителя любого уровня в ту или иную сторону. Данная статья посвящена психологическому анализу процесса подготовки к концерту и сценическому выступлению.

**Ключевые слова:** инструментовка, психология исполнителя, постановка, концерт.

**Summary:** The psychology of instrumental performance activity is usually considered in two aspects: as work on a piece of music, as preparation for a public performance and as a creative process on stage. The nature of the future stage work, the peculiarities of the folk instrumental genre from the very beginning create an appropriate psychological mood, direct the performer of any level in one direction or another. This article is devoted to the psychological analysis of the preparation process for the concert and stage performance.

**Keywords:** instrumentation, psychology of the performer, staging, concert.

**Kirish:** O‘zbekiston davlat konservatoriysi yagona oliv o‘quv yurti bo‘lib, ko‘plab mutaxassis sozandalar tarbiyalab, cholg‘u ijrichilik mahoratlarini

o'stirish, musiqiy tafakkurini kengaytirish, zamonaviy ijrochilik sir-asrorlari bilan tanishtirish, aynan oliv o'quv yurti ta'limida amailga oshiriladi.

Aksariyat cholg'u ijrochilar musiqiy asar bilan ishlash jarayonini uch bosqichga ajratadilar:

- musiqiy kompozitsiya bilan tanishish va ijro g'oyasini shakllantirish bosqichi;
- ijro rejasini amalga oshirish bosqichi;
- konsert oldidan tayyorgarlik bosqichi.

Ba'zi mualliflarning ta'kidlashicha, bunday bo'linish shartli, chunki asarda bir bosqichning elementlari boshqa bosqichda mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, ijrochi ishning keyingi bosqichlarida avvalgilariga qaytadi. Shuningdek, musiqiy asar obrazini shakllantirish jarayonini bosqichlarga bo'limgan holda yaxlit shaklda amalga oshiradigan ijrochilar ham mavjud. Ijrochilar musiqiy kompozitsiya bilan mukammal darajada tanishib, sahnaga chiqish oldidan uning ijro g'oyasini shakllantirib olishi zarur. Ijro rejalar esa repertuar ketma-ketligida amalga oshiriladi. Konsert oldi tayyorgarligi har bir ijrochi uchun sahna atmosferasiga adaptatsiya va sahna psixologiyasiga ijobiy ta'sir qiladi.

Biroq, ijrochilarning individual xususiyatlarining xilma-xilligi va ularning ijodiy jarayonga bo'lgan qarashlari bilan, asar ustida ishlash samaradorligiga ta'sir qiluvchi ba'zi umumiy psixologik sharoitlar mavjud. Umumiy olganda, individual xususiyatlarining xilma-xilligi va ularning ijodiy jarayonga bo'lgan qarashlari turli xil deb baholanadigan bo'lsa, ijrochilar turli xildagi tipologiyaga mansubligini bildiradi. Insonlar biologik 4 ta tipga bo'lingan:

1. Melanxolik;
2. Sangvinik;
3. Flegmatik;
4. Xolerik.

Bundan ko'rinish turibdiki, ushbu 4 tip vakillari xarakteriga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ularning musiqiy asar, umumiy olganda, biron bir vazifa bajarishga yondashuvi turli xil. Shu sababli ijrochilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qituvchilar ularning qaysi tipga mansubligi hamda ular bilan ishlash jarayonini to'g'ri tashkillashtirshi lozim. Bundan tashqari yana shuni aytib o'tish joizki, yosh sahna ijrochilar bilan ishlashda yana bir qancha xususiyatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi..

- Audial;
- Vizual;
- Kinestetik;

Audial xususiyatga ega ijrochilar musiqiy asarlarni o'rgatuvchi tomonidan shunchaki eshitish orqali uni tushib, tayyorgarlikni boshlaydi. Vizual tip vakillari esa ko'proq faoliyat jarayonini ko'rish orqali tezroq tushunishadi. Kinestetiklar – tashqi ta'sir yordamida o'z ijro faoliyatlarini amalga oshiradi.

Kinestetik qobiliyat egalari ham mavjud. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat nima?

a) musiqa rahbarining o'z xatti-harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilib yo'naltiradi, vaqtini, harakat sur'atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish, hayot marhamatlaridan rohatlanish;

b) bu mehnat faoliyatining barqaror turi bo'lib, u nafaqat aniq bilim va ko'nikmalarni bo'lishini talab qilmay, balki bir xil bo'lgan umum kasbiy bilimlarni ham bo'lishini talab qiladi;

c) bu mehnat faoliyatining barqaror turi bo'lib, u nafaqat aniq bilim va ko'nikmalarni bo'lishini talab qilmay, balki bir xil bo'lgan umum kasbiy bilimlarni ham bo'lishini talab qiladi;

d) Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

Ko'pgina musiqa o'qituvchilari akademik konsert, imtihon yoki musiqa tanlovi bo'ladimi, sahna ijrochiligi bo'ladimi sanasini o'z vaqtida belgilash muhimligini ta'kidlaydilar. Aynan belgilangan sana oralig'ida sahna ijrochilari yuqoridagi shartlar bilan hamohang tarzda o'z ustida ishlaydi. Bu bo'lajak ijro shartlariga asoslanib, ijrochi ongingin yo'nalishini shakllantirishning psixologik boshlanishi sanaladi. Ushbu yo'nalishsiz, ba'zida talaba ayrim tafsilotlarni tugallanmagan holda qoldirib, asar ustida "to'liq" ishlamasligi mumkin.

Bo'lajak konsert (ommaviy namoyish) haqida birinchi ma'lumotni olgan paytdan boshlab unga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida qaror qabul qilishgacha bo'lgan jarayonni sahnadagi ommaviy namoyishga dastlabki tayyorgarlik bosqichi deb atash mumkin. Uning asosiy psixologik vazifasi bo'lajak sahna faoliyati shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash, tayyorgarlik darajasini o'z-o'zini baholash va muvaffaqiyatli chiqish imkoniyati asosida konsertga, tanlovga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida qaror qabul qilishdir [1]. Ommaviy namoyishga tayyorgarlik ko'rish borasida qaror qabul qilingandan so'ng, asosiy psixologik tayyorgarlik bosqichi boshlanadi, uning vazifasi:

- 1) sahna ijrochiligining maqsadlari va motivlarini anglash;
- 2) muayyan spektaklning tabiatini bilan bog'liq holda ijodiy jarayonni rejalashtirish va tashkil etish;
- 3) kelgusi sahna namoyishi sharoitlariga moslashish.

Motivatsion-ehtiyoj muhiti faoliyatni amalga oshirishning psixologik mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Konsert yoki sahna namoyishiga tayyorgarlik ko‘rish uchun motivatsiyaning ba’zi umumiy jihatlari mavjud. Konsertga yoki sahna namoyishiga ruhiy tayyorgarlik holatini shakllantirishga ta’sir qiluvchi ijobiy motivlarni bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin:

-ijrochining bajarilgan ishlarga munosabati, o‘zini o‘zi anglash bilan bog‘liq motivlar;

- ijrochining jamoatchilikka munosabati bilan bog‘liq motivlar;

- faoliyatni amalga oshirishga munosabat bilan bog‘liq motivlar.

Motivatsiya tashqi va ichki motivatsiyaga bo‘linadi. V.G.Raznikovning fikricha, spektaklga tayyorgarlik ko‘rishda ideal konsepsiyani shakllantirish sharti sifatida yetakchi ichki motiv bu asarda ijro yetuvchi shaxsga, musiqachining didiga eng mos keladigan narsani topish imkoniyatidir. Tashqi motivlar ham muhimdir: musiqiy asar orqali o‘zini tasdiqlash istagi [2]. Yuqoridagilardan biz repertuarning ijrochi shaxsiyatining ma’lum uslubdagi asarlarga barqaror (yoki vaziyatli) selektiv yo‘nalishini shakllantirish vositasi sifatidagi yirik ahamiyati haqida xulosa qilishimiz mumkin. Musiqachining ijro etilgan asarga ijobiy, manfaatdor munosabati muallif g‘oyasiga chuqurroq kirib borishga yordam beradi, ijodiy tuyg‘ularni shakllantirishni rag‘batlantiradi. Repertuar, shuningdek, o‘qituvchi uchun insonning boshqa muhim psixologik fazilatlarini shakllantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi, ya’ni ijodiy intilishlarni amalga oshirishga ishonch, o‘zini to‘g‘ri baholay olish kabi [3]. Shuning uchun har bir sahna ijrochisi o‘zining sahnadagi ijrosini ijobiy baholashi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishi, sahna asariga to‘laqonli tayyor ekanini o‘ziga isbotlashi lozim. O‘ziga ishonch tuyg‘usini shakllantirish uchun konsert repertuari talabaning imkoniyatlariga mos kelishi kerak. Sahnaga olib chiqilmaydigan asarlar ba’zan rivojlanish, o‘zini takomillashtirishda rag‘batlantirish uchun biroz qiyinchilik darajasiga ega bo‘lishi kerak.

Ijroga ruhiy tayyorlik holatini shakllantirishda ijrochining jamoatchilikka nisbatan motivlari muhim rol o‘ynaydi.

Sozandani ijro etishga tayyorlash motivlari (ayniqsa, mashg‘ulot bosqichida) o‘zini takomillashtirish istagi, kasbiy ijro mahorati va qobiliyatlarini rivojlanirish bo‘lishi mumkin. Ijrochining sahnadagi ruhiy holatini o‘zlashtirish, uni optimallashtirish, ommaviy chiqish oldidan va konsert paytida va konsert oldidan his-tuyg‘ularini tartibga solishni o‘rganish istagi shaxsiy vazifa sifatida bo‘lishi mumkin.

Taniqli rus psixologи, akademik B.Ananев vizual-eshitish sinesteziyasi birinchi navbatda insonning tipologik xususiyatlari bilan belgilanmaydi, deb hisoblaydi [4].

Musiqiy asar g‘oyasini amalga oshirish jarayonida ijrochining qayta mujassamlanishining psixologik xususiyati tinglovchilarga qaratilgan. Ish jarayonida ijrochi doimo uning talqini o‘qituvchilar, talabalar, do‘sler yoki noma‘lum tinglovchilar tomonidan qanday qabul qilinishi haqida o‘yaydi va hayolan o‘z ijrosining tanqidchisiga aylanadi.

Mashxur pianinochi G.Neygauz shogirdlariga tinglovchilarning qanday qabul qilishlarini tasavvur qilishlari uchun asar ijrosini qulochchinlarni taqqan holda amalga oshirishni tavsiya etgan. Ushbu mahoratni rivojlantirishda zamonaviy texnik vositalar (ovoz yozish, videomagnitofon) dan unumli foydalilaniladi. Aksariyat metodistlarning fikricha, o‘z ijrochiligini tinglovchilarning qanday qabul qilishini idrok etishi ijrochining ommaviy namoyishlarga tayyorligining ko‘rsatkichlaridan biridir.

Konsertdan oldingi davr ko‘plab ijrochilarda erta namoyishdan avvalgi emotsiyal holatlarga olib keladi. “Bu davrda, - deydi G.M.Kogan, - asosiysi cholg‘uning yaxshi holati, tafakkur qila olish qobiliyati va tananing optimal ish holati. Ijrochi sahnadan tashqarida eslab olish uchun asar bo‘laklarini ijo qilmasligi kerak. Asar butkul tayyor holatga olib chiqish uchun to‘liq yoki katta-katta fragmentlari bilan zaruriy sur’atda ijo etilishi lozim” [5].

Tajribali musiqachilar ko‘p hollarda konsertdan oldingi davrda darslarning intensivligini kamaytirishni tavsiya qiladilar. Konsertga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tayyorgarlik bu, birinchi navbatda, ish va dam olishning uyg‘un kombinatsiyasi sanaladi. Yaxshi ruhiy holatni saqlab qolish juda muhim, shuning uchun har qanday salbiy his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Sahnaoldi davrda sahna ijrochilari yetarli darajada dam olishi, ruhiyatini ichki va tashqi motivlar bilan boyitishi lozim. Ruhiy holatga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan barcha unsurlardan yiroqda bo‘lish sahna ijrochisining sahnada davri mobaynida o‘zini yaxshi va ko‘tarinki kayfiyatgda bo‘lishini ta’minlaydi.

Yana bir bosqichni – sahnadagi ijrochining ijodi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan vaziyatli psixologik tayyorgarlik bosqichini ajratib ko‘rsatish kerak, uning mohiyati musiqiy asarga maksimal darajada e’tibor qaratish, musiqiy asarni ijo etishni boshlashga to‘liq tayyorlik momentini aniqlashdir. Ushbu bosqichni konsentratsiya bosqichi deb atash mumkin, bu yaqinlashib kelayotgan faoliyat bilan bog‘liq bo‘lmagan barcha ta’sirlarni ongidan chiqarib tashlash deb tavsiflanadi. Bu “asar ichiga kirish”, “ijroga sho‘ng‘ish”ning shartlaridan biridir.

Har bir ijrochi o‘z shaxsiy konsentratsiyasini ya’ni diqqatni jamlash uslubini rivojlantiradi. Ko‘pgina o‘qituvchilar talabalarga tempni, teginish tabiatini, ongidagi birinchi notalarning tovushlarini haqiqiy ijo boshlanishidan oldin aniqlashni, ya’ni barmoqlar tugmachalarga tegmasdan oldin asarni aqlan boshlashni maslahat berishadi. Boshqalar, ijroni boshlashdan oldin diqqatni

jamlash, zo'riqishni bartaraf etish, vaziyatni yengillashtirish va chalg'itishga yordam beradigan turli xil usullarga murojaat qilishadi.

Ba'zi ijrochilarga sahnada diqqatni jamlash uchun qo'shimcha texnikalar kerak emas, bu, shubhasiz, aqliy jarayonlarning individual va shaxsiy xususiyatlar bilan bog'liq. Yosh sahna ijrochilarni sahnadagi diqqatini jamlash uchun, kompozitsiyani to'laqonli his qilishi uchun yuqorida aytilganidek tempni, nota tovushlarini ong orqali his qilishi, kompozitsiya ichida yashay bilishni singdirish kerak. Sababi sahna ruhiyatida musiqiy kompozitsiyani to'laqonli his qilgan ijrochi sahna salobatini o'z ijrosi bilan bosib o'tadi, sahnada o'zni erkin tutadi, eng muhim, sahna psixologiyasi ijobiy va musiqiy kompozitsiya bekamu ko'st ijro etiladi.

Bundan tashqari, ba'zi umumiy qoidalar, vaziyatga tayyorgarlik bosqichlari mavjud. Birinchisi, diqqatning "umumiy" konsentratsiyasi, yaqinlashib kelayotgan faoliyatni o'rnatish bilan bog'liq holda ongni safarbar qilish bilan tavsiflanadi. Talabaga ijro etiladigan musiqiy asarning shakli, tuzilishi, xarakteri, eng muhim qismlarini taqdim etishni tavsiya qilish mumkin. Tayyorlov o'qitish funksiyasi tufayli zarur hissiy fon yaratiladi. Ikkinchisi bosqichda ongning ijro boshlanishiga yakuniy tayyorlik momentini aniqlashiga qaratilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib, biz konsert yoki sahna namoyishiga psixologik tayyorgarlikning to'rt bosqichini ajratamiz:

1. Dastlabki tayyorgarlik bosqichi. Bu bo'lajak konsert (tanlov) haqidagi ma'lumotlarni tushunish va tayyorgarlik darajasini o'z-o'zini baholash asosida ommaviy namoyishga tayyorgarlik ko'rish haqida qaror qabul qilishdan iborat;
2. Asosiy mashg'ulot bosqichi: dastur ustida ishslash, ijobiy motivatsiyani shakllantirish, ijodiy intilishlarni amalga oshirishga ishonch, kutilgan ishslash sharoitlariga munosabat bilan darslarni rejorashtirish va tashkil etish;
3. Konsertdan oldingi davr bilan bog'liq to'g'ridan-to'g'ri tayyorgarlik bosqichi. Bunga quyidagilar kiradi: yaqinlashib kelayotgan ommaviy ijro kontekstida dasturiy faoliyat-mashq qilish, konsert oldidan optimal ruhiy holatni shakllantirish;
4. Vaziyatli psixologik tayyorgarlik bosqichi. Uning mohiyati ma'lum bir musiqa asarini ijro etish uchun psixologik tayyorgarlikni, musiqachining bo'lajak ijroga e'tiborining maksimal konsentratsiyasini yaratishdan iborat.

Ushbu tayyorgarlik bosqichlarining har biri vazifalar, vositalar va ularni hal qilish usullari tufayli o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq, barcha bosqichlarda umumiy vazifa - bu ommaviy namoyishlar (imtihon, konsert, tanlov)ga ruhiy tayyorlik holatini shakllantirishdir.

**Xulosa:** Ushbu maqolada ta'kidlanganidek ijrochini konsert dasturlariga tayyorlashning ruhiy jixatlari haqida to'xtalib o'tildi, bundan ma'lum bo'ladiki ijrochi o'z asarini puhta bilishi bilan birga ruhan ijroga tayyorlashi, sahnada o'zini tuta bilishi, sahna madaniyati va ijro madaniyatlariga rioya qila olishi shu bilan birga o'z ijrosi unga jo'rnavoz bo'ladigan ijrochini eshita bilishi ham ohang ravishda olib borishi zarur omillardan xisoblanadi. Ushbu maqolada mavzuning barcha jixatlariga imkon boricha to'xtalishga xarakat qildik. Lekin bundan shunaqa xulosa qilish mumkinki chuqur va keng mavzu bo'lib uni atroflicha yoritish va unga turli jixatlardan turli yondashuvlar asosida yondashib, mavzuni yoritish tadqiq qilish va o'rganish shuningdek amaliyotga tadbiq etish talab etiladi. Maqolada bildirilgan fikrlar oxirgi mavzular bo'lib qolmay balki, xar bir ijrochi va xar bir ustoz o'z tajribasidan kelib chiqadi. Xususan ijrochining ijro mahoratidan kelib chiqib uning ushbu mavzuga yondashishi maqsadga muvofiqliqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi (ma'ruzalar kursi): O'quv qo'llanma. - T.: Musiqa, 2005.
2. Rajnikov V. Rezervi muzikalnoy pedagogiki. – M.: Znaniye, 1980.
3. Matyakubov Sh.B. An'anaviy ijrochilik tarixi. – Toshkent: 2015.
4. Loginova N. A. Boris Gerasimovich Ananev: Biografiya. Vospominaniya. Materiali. — SPb.: Izd-vo Sankt-Peterburgskogo un-ta, 2006.
5. Kogan G. U vrat masterstva. – M., 1997.

## MAZMUNÍ

## MUZÍKATANÍW

1	<b>Ходжаметова Г.И.</b> КАРАКАЛПАКСКАЯ ТРАДИЦИОННАЯ МУЗЫКА КАК ПЕРВООСНОВА СОЧИНЕНИЙ ФОРТЕПИАННОЙ МУЗЫКИ	3
2	<b>Charshemov J.</b> P.XINDEMITNING “LUDUS TONALIS” TSIKLINING GARMANIK TAXLILI	10
3	<b>Мухаммедниязов К.Т.</b> ИЗУЧЕНИИ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОСВЯЗИ МУЗЫКИ И СЛОВА НА ПРИМЕРЕ «ПОЭТИКИ» АРИСТОТЕЛЯ	16
4	<b>Abatbaeva R.O.</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QORAQALPOQ MUSIQASI	22
5	<b>Сайдхонов А.С.</b> ДВЕНАДЦАТЬ ГРАНИ СОВЕРШЕНСТВА (На примере трансцендентные этюды Ференца Листа)	29
6	<b>Жумабаев А.Е., Муратбаева А.А.</b> МУЗЫКАЛЬНАЯ ФОЛЬКЛОРISTИКА	42
7	<b>Saburova U.M.</b> LYUDVIG BETXOVEN IJODIDA VARIATSION SHAKL	48

## KÓRKEM ÓNER

8	<b>Allanbaev R.O.</b> QORAQALPOQ KOMPOZITORLARI ASARLARIDA MUSIQIY DRAMALAR	53
9	<b>Abdullaev F., Muratbaev A.</b> QARAQALPAQSTANDA DEMLI ORKESTRINIŃ DÚZILIWI HÁM ONÍŃ RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	59
10	<b>Qurbanazarov P.</b> DAMLI CHOLG'ULAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
11	<b>Shermatov K.E.</b> BUYUK ALLOMALAR ABU ALI IBN SINO VA ABU NASR FAROBIYLARNING MUSIQIY MEROSI	73
12	<b>Abdullaeva U., Razatdinova A.</b> KOMPOZITOR KEÑESBAY ABDULLAEVTÍŃ QARAQALPAQ XALÍQ NAMALARÍNÍŃ RAWAJLANÍWÍNA QOSQAN ÚLESI	80
13	<b>Александрова О.А.</b> ПАМЯТИ ОПЕРНОГО ПЕВЦА КУРКМАСА МУХИТДИНОВА	86
14	<b>Allaniyazov B.</b> SKRIPTKANING TARIXIY RIVOJLANISH JARAYONI	91
15	<b>Erejepov A.A.</b> QARAQALPAQ BAQSISHILIQ MEKTEPLERINIŃ ATQARIWSHILIQ KÓRKEM ÓNERI ÓZGESHELIKLERİ HAQQINDA	98

16	<b>Kamalova G.M.</b> HIKMAT RAJABOVTIŃ DÓRETIWSHILIGINE TÁN ÓZGESHELIKLERİ	104
17	<b>Dosimbetov B.X.</b> CHOLG'U IJROCHISINI KONSERT VA SAHNA NAMOYISHIGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	113
18	<b>Zuxurov M.M.</b> DIRIYORLIQTA QOL HÁREKETLERINIŃ DURIS ATQARILIWI HÁM OLARDI RAWAJLANDIRIW	120
19	<b>Embergenova G.A., Yo'ldoshev L.E.</b> XOR ASARLARINI TAHLIL QILISH OMILLARI	130
20	<b>Paxratdinova L.Sh.</b> SKRIPKA SAZ ÁSBABÍ TARIYXÍ	136
21	<b>Karimova I.I.</b> SKRIPKA SAZ ÁSBABÍNA SHÍGARMA JAZĞAN DÓRETIWSHILER HÁM PROFESSIONAL ATQARÍWSHÍLAR ÁHMIYETI	145
22	<b>Rejepov Sh.B.</b> GÁYÍP DEMESINOVTÍN FORTEPIANO DÓRETIWSHILIGI ("Prelyudiya"ları misalında)	153
23	<b>Mamutov P.A.</b> TEATRDÍN TARIYXÍY QÁLIPLESIWI HÁM DRAMATURGIYANÍN RAWAJLANIW BASQÍSHLARÍ	159

#### MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

24	<b>Umarova V.A.</b> MUSIQA-IJROCHILARNI TANLOVLARGA TAYYORLASHDA USTOZ VA OILANING ROLI	164
25	<b>Tnibaev P.K.</b> DAMLI CHOLG'ULARNI TALABALARGA O'RGATISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA METODLAR	169
26	<b>Элмуродова Г.А.</b> СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКИ ПО ПРЕДМЕТУ ФОРТЕПИАНО (НА ПРИМЕРЕ ЭТЮДОВ К. ЧЕРНН)	173
27	<b>Iseev R.</b> FORTEPIANO ATQARÍWSHÍLÍGÍNDA POLIFONIYA JANRÍNÍN AHMIYETI. POLIFONIYALÍQ SHÍGARMALAR USTINDE JUMÍS ALÍP BARÍW	180

#### JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28	<b>Jabbarov I.A., Bazarbaeva N.I.</b> MOBILE APPLICATIONS AS A CONTEMPORARY INSTRUMENT FOR ENHANCING ENGLISH LANGUAGE LEARNING	187
29	<b>Marziyaev J.K.</b> JOQARÍ OQÍW ORÍNLARÍNDA JURNALIST QÁNIGELERDI TAYARLAW	194
30	<b>Kalimbetova S.A.</b> O'ZBEK JADID DRAMATURGIYASI VA TEATRI ("Padarkush" va "To'y" dramalari misolida)	201

**MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER  
XABARSHÍSÍ**

*Ilimiy-metodikalıq jurnal*